



The role of the family in the process of language acquisition

Rohila ABDULLAYEVA¹

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 July 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

25 August 2024

Keywords:

language acquisition,
mother tongue,
mother's role,
social environment,
social influence,
language experience,
socioeconomic environment,
family structure.

ABSTRACT

This article discusses the concept of "mother tongue" as a scientific term used in both a broad and narrow sense. In a broad sense, the term can be associated with the concept of a language family, representing a language or a group of related languages. In a narrower context, it refers to the primary influence on a child's speech during the early stages of language acquisition, viewed as the first manifestation of social influence on the child's speech. The article, based on foreign studies, demonstrates that both the language and the characteristics of the family play a crucial role in shaping the child's speech. It also highlights aspects of the issue that can be applied to Uzbek linguistics.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2/S-pp166-170>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Til o'zlashtirish jarayonida oilaning roli

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

til o'zlashtirish,
ona tili,
onaning roli,
ijtimoiy muhit,
ijtimoiy ta'sir,
til tajribasi,
sotsial-iqtisodiy muhit,
oilalar tarkibi.

Ushbu maqolada ona tili tushunchasining tor va keng doirada qo'llanuvchi ilmiy termin ekanligi to'g'risida so'z boradi. Keng doirada tushuncha til oilasi tushunchasi bilan bog'lanib bir til yoki qardosh tillar guruhini ifodalashi mumkin. Tor doirada ilk o'zlashtirish bosqichida bola nutqiga keng ta'sir ko'rsatuvchi obyekt, bola nutqida ijtimoiy ta'sirning ilk boshlang'ich ko'rinishi sifatida keltiriladi. Maqolada oilaning tili va xususiyatlari bola nutqini shakllantiruvchi omil sifatida xizmat qilishi xorijiy tadqiqotlar asosida dalillangan. Masalaning o'zbek tilshunosligi uchun tatbiq qilish mumkin bo'lgan jihatlari yoritilgan.

¹ Acting Associate Professor, Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

Роль семьи в процессе овладения языком

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

овладение языком,
родной язык,
роль матери,
социальная среда,
социальное влияние,
языковой опыт,
социально-экономическая
среда,
структура семьи.

В данной статье рассматривается понятие «родной язык» как научный термин, используемый в узком и широком смысле. В широком смысле это понятие может быть связано с языковой семьёй, обозначающей язык или группу родственных языков. В узком смысле под родным языком понимается язык, который оказывает наибольшее влияние на речь ребёнка на начальном этапе её усвоения. В статье на основе зарубежных исследований показано, что язык и особенности семьи являются важными факторами, формирующими речь ребёнка. Выделены аспекты данной проблемы, которые могут быть применимы к узбекскому языкознанию.

Ma'lumki, qadimdan turli til oilalariga mansub bo'lgan tillarda so'zlashuvchi xalqlar yaqin qo'shnichilik munosabatida yashab kelganlar. Ijtimoiy, siyosiy, savdo-sotiq aloqalari ta'sirida tillarning ham o'zaro ta'sirlanishi yuz bergan va mazkur jarayon hozir ham davom etib kelmoqda. Ko'p tillilik muhitida metaforik xususiyatga ega "ona tili" tushunchasi shakllangan va mazkur tushuncha xalq tilini boshqa tillardan farqlab turuvchi termin sifatida qo'llanilgan. Keyinchalik tushunchaning qamrovi kengayib, xalq tilini o'rgatuvchi soha sifatida qo'llaniladi. Dunyoning turli tillarida tushuncha mazmuni saqlangan holda keltiriladi. O'zbek tilida ham o'zbek tili imkoniyatlari, til sathlarini o'rganuvchi predmet shunday nomlanadi. Ona tili tushunchasi tor doirada til o'zlashtirish jarayonida onaning farzandga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy ta'sirni anglatadi. Xorij tajribasida bolaning nutqiy rivojlanishida ona nutqini ota va oilaning boshqa a'zolari nutqi bilan birgalikda tahlil qilish amaliyoti bor. Bundan tashqari ta'sir ko'lamining yuqoriligini inobatga olgan holda til o'zlashtirish jarayonida onaning rolini ajratib, ta'kidlab olib borilgan ko'plab izlanishlar mavjud. Masalan, Aliyeva B.Sh. ona nutqining til o'zlashtirish jarayonini etnokulturologik jarayon sifatida talqin qiladi. Tadqiqotchiga ko'ra, bola ilk o'zlashtirish jarayonida onadan nafaqat til, balki unda saqlanib kelayotgan xalq madaniyatini ham o'zlashtiradi. Olim keyinchalik ona tomonidan aytiladigan ertaklar, allalar jarayonni boyitishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Tadqiqotchining mazkur qarashlariga qo'shilish mumkin. Chunki har qanday tilda xalqning ma'lum bir davrgacha to'plagan madaniyat izi, xalq haqidagi axborot mavjud bo'ladi. Bola tilni o'zlashtirib borish borobarida mazkur madaniyatga aloqador bo'lgan birliklarni ham egallab boradi. Til etnik birlik sifatida talqin qilinishini inobatga olganda, mazkur nazariya o'zini to'liq oqlaydi. Tadqiqotchi bola ilk o'zlashtirish jarayonida ohang, urg'u kabi nutqning sifatiiy jihatlarini aynan ona nutqidagi singari takrorlashga harakat qilishini aytadi. Bu jarayon bolaning nutqi shakllanishidan tashqari uning shaxsiyatiga, ruhiyatiga ham ta'sir qilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, tiloshunoslik va pedagogika tarixida onaning rolini ko'rsatishga qaratilgan tadqiqotlarning barchasida ona farzandiga milliy madaniyatning tashuvchisi bo'lishi urg'ulangan. Jumladan, chex pedagog olimi Y. Kamenskiy «Материнская школа» risolasida til o'zlashtirish, ta'lim jarayonida oila va onaning muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Olim har qanday bolaga madaniyat va san'at o'rgatilishi zarurligini aytadi. Shundagina bu farzand keyinchalik xoh saroy ishi bo'lsin, xoh siyosat yuqori natijalarga erishishi mumkinligini bashorat qiladi. Ayni manbada bola

o'zlashtirishi kerak bo'lgan uch jihat to'g'risida so'z yuritilib, til o'zlashtirish va ilm, mazkur uchlikning birini tashkil qilishi haqida mulohaza bor. Mazkur uchlikda ishonch, yaxshi ishlarni amalga oshirish va til o'rgatish va bilim berish har qanday bolani barkamol qiluvchi ishlar ekanligi aytilgan. Olim farzand tarbiyasida dastlabki olti yilni eng muhim davr sifatida keltiradi. Farzand saroy ilmi yoki ma'lum hunarga yo'naltirilgungacha bo'lgan davrni ota-onasi bilan o'tkazishi muhimligini aytadi. Demak, bola jamiyatga qo'shilib, yangi nutqiy malaka va bilimlarni egallashiga qadar bo'lgan davrda uning asosiy nutqiy etaloni oila a'zolari, asosan, ota-onasi ta'sirida rivojlanishi pedagogika va tilshunoslik tarixi uchun avvaldan ma'lum hodisa. Biroq tilshunoslikning antroposentrik paradigmasi va unga kiruvchi sohalarining taraqqiyoti hodisaga yangi aspekt orqali qarash, uni batafsil tahlil qilish imkonini yaratdi. Hozirda til o'zlashtirish jarayoniga psixolingvistik, pragmatik, lingvokulturologik, sotsiokulturologik, etnokulturologik jihatdan yondashish mumkin.

Jumladan, tadqiqotchilar Dina Kapengut va Kimberly Noble murakkab sotsio-iqtisodiy muhit ta'sirida bolalarning aqliy va nutqiy rivojlanishi, uy ta'limining roli va otalarning jarayondagi hissi haqida so'z yuritadilar. Unga ko'ra, oilaviy daromad yuqori bo'lgan oila farzandlarida aqliy rivojlanishning yuqori ko'rsatkichi, til imkoniyatlarining balandligi va iqtisodiy muvaffaqiyat kuzatilgan. Shu o'rinda mazkur manbada yana bir tajribaga e'tibor qaratiladi. Ular Kanzas universiteti tadqiqotchilari Betty Hart va Todd Risley tomonidan olib borilgan tajribalarga diqqat qaratadilar. Mazkur tajriba natijalariga asosan kam daromadli oilalarda ulg'aygan bolalarning lug'at boyligi huddi shu yoshdagi (3 yoshgacha bo'lgan davr) katta daromadli oilalarda voyaga yetayotgan tengdoshlaridan bir barobar farq qilishi aytiladi, ya'ni kam daromadli oilalarda ulg'aygan bolalar amaliyotda katta daromadli oilalarda ulg'aygan tengdoshlar qo'llaydigan so'zlarning yarmini qo'llay oladilar va, shuningdek, shu miqdordagisini tushunish imkoniyatiga egalar. Natijani kutilganidek, farzandga qaratish mumkin bo'lgan qo'shimcha e'tibor va moliyaviy imkoniyatlar bilan bog'lash mumkin. Kuzatishlarda yaxshi ta'minlangan oilalarda farzand ko'proq vaqt ajratish imkonining bo'lishi, o'zaro muloqot muhitining ko'pligi yoki jarayon uchun maxsus yollangan insonning mavjud bo'lishi ham so'z boyligining o'sishiga ta'sir qilishi aniqlanadi. Bundan tashqari, elita qatlam nutqida tor doira uchun amal qiluvchi ayrim so'zlarni qo'llashi, murakkab grammatik birikmlardan foydalanishi ham bolalar nutqiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chet tillarini o'zlashtirish faol rag'batlantiriladi. Demak, xulosa qilish mumkinki, sotsial-moliyaviy tabaqalanish til bilimlarining tabaqalanishiga ham sabab bo'lishi mumkin. O'zbekiston sharoitida sanab o'tilgan omillarni bolalar nutqida tekshirish zaruriyati bor.

Ilk o'zlashtirish jarayonida oila muhim tashqi omil sifatida oilaning tarkibini keltirish mumkin. Bu sotsial ta'sirning dastlabki muhim ko'rinishi. To'liq oilalarda (ota va onaning mavjud bo'lishi nazarda tutiladi) bolaning til o'zlashtirishi oson kechadi, chunki unda nutq o'rganish obyekti ko'p bo'ladi. Keyinchalik o'smir nutqida jins xususiyatidan kelib chiqib ota yoki ona nuqtiga taqlid ortadi (o'smirlik davridagi nutqda yaqqol ko'zga tashlanadi). Oila tarkibining noto'liq bo'lishi qarama-qarshi jinsga mansub bola uchun etalon nutq tanlash vazifasini qiyinlashtiradi. Oilada farzandlarning ko'p bo'lishi, yoki ioila tarkibining bobo, buvi singari yaqin qarindoshlar asosida kengayishi ham bola nutqiga ijobiy ta'sir qiladi. Chunki shu asosda bolada keng kuzatuv obyekti bo'lishini ta'minlanadi. Tadqiqotchilar bunday tarkibli oilalarga nisbatan multitarkibli oila tushunchasini qo'llagan. O'zbek tilida oila tarkibining til o'zlashtirish jarayoniga ta'sirini muhokama qiluvchi adabiyotlarga ehtiyoj seziladi.

Nevrologiya azaldan ancha mavhum va murakkab deb qaralgan ko'plab hodisalarni ilmiy asoslashga harakat qilayotgan soha. Bolaning miyasi unga g'amxo'rlik ko'rsatayotgan, homiylik qilayotgan insonlarning nutqiga, va umuman shaxsiy xususiyatlariga nisbatan yuqori ta'sirchanlikda bo'ladi. Bolalarda ota-onalar nutqidagi tashqi faktorlar: nutq tezligi, balandligi, ohangdan tashqari so'zlar va jummalarga aynan taqlid kuzatiladi. Ayni vatqda taqlid tilda kechish barobarida aqliy faoliyatda ham namoyon bo'ladi. Ota-onasining sohasiga oid so'z va terminlarni, jummalarni tengdoshlariga nisbatan yaxshiroq bilagidan bolalar buning yorqin namunasidir. Tadqiqotchilarga ko'ra, mazkur omil bolalarning kasb tanlash jarayonida, maktab ta'limida ham muhim rol o'ynaydi. Demak, umimiy qilib olganda, bolaning ilk til o'zlashtirish jarayonida oila muhiti keyingi maktab ta'limi, aqliy va nutqiy rivojlanishi, kasbiy faoliyatini tashkil qilishda muhim rol o'ynaydi. Demak, oila a'zolari mansub bo'lgan kasb yoki yoki oila uchun an'ana tusini olgan mashg'ulotlarni ham bola nutqiga ta'sir ko'rsatuvchi faol ijtimoiy ta'sir sifatida e'tirof qilish mumkin.

Oilada ijobiy til muhitini yaratish va bolalarda yuqorida keltirilgan omadli iqtisodiy omadga erishtirish – murakkab vazifa. Buni bir necha tashqi omillar bilan bog'lash mumkin. Masalan, bolaga ajratish mumkin bo'lgan vaqt, oilaning moliyaviy holati, mamlakatda hukmron aqida, an'ana va din, bularning bari bolaga oilaga bevosita va bilvosita ta'sir qiladi, shu jumladan, bolalarning nutqida ham aks etadi.

Xorij tajribasida ilk o'zlashtirish bosqichi murakkab xarakterli ekanligi bois bir necha jarayonni yengillashtirishga xizmat qiluvchi vositalar bor. Masalan, ota-onalar klubi va h. shular jumlasidan. Til o'zlashtirishni samarali tashkil qilish jarayonida rollarga kirish, ko'zgazmalar namoyish qilish va bir qancha yengillashtiruvchi usullar taklif qilingan.

Ilk o'zlashtirish jarayoni bola uchun ham, uning ota-onasi uchun ham eng muhim davr ekanligini yuqorida keltirilgan misollar asosida tahlil qildik. Tadqiqotchilar bu davrni o'z ichida ma'lum bir bosqichlarga ajratgan holda tadqiq qilishni tavsiya qiladilar. Eve Clark til o'zlashtirish jarayonida dastlabki o'n ikki oyni alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Buni o'zlashtirish jarayonining fundamental bosqichi sifatida ajratadi. Ma'lumki, bu davr chaqaloqlik davri deb yuritib bola sotsial-pragmatik jarayonlarga chuqur kirib bormagan muddatga to'g'ri keladi. Shuning uchun bu jarayonning asosiy mazmuni kattalar nutqini tinglash va jummalarni umumiy miqyosda tushunib olishdan iborat bo'ladi. Til tajribasining dastlabki materiallari yig'ila boshlaydi. Keyinchalik mazkur tajriba mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga, ya'ni og'zaki nutqning shakllanishiga xizmat qiladi. Ayrim tadqiqotchilar mazkur davrning 44 oygacha davom etishini aytib o'tadi va bu davrda bolada temperament xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Bu bosqichning xarakterli jihati shundan iboratki, mazkur vaqtda ma'lumotlar til orqali berilishidan tashqari imo-ishoralar, yuz ifodasi orqali ham berilishi mumkin. Aynan shu davrda o'zlashtirgan bilimlari sabab bola nutqiy ohang va uning ifoda maqsadini o'zlashtiradi. Eve Clark mazkur jarayonni emotsional ta'sir bilan bog'laydi, bola ohangning qaysi hissiyot bilan bog'lanishi, yuz ifodasining qaysi ma'lumotlarni berishga qaratilgani haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, til o'zlashtirish jarayonida oila eng muhim va dastlabki bo'g'in sifatida ishtirok etadi. Oila doimiy ravishda sotsial munosabatlarning eng kichik bo'g'ini sifatida jamiyatdagi hodisalarni bola nutqiga tashiydi. Oila sotsial-iqtisodiy statusining barqaror bo'lishi bolaning nutqiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aksincha

holat ham bola nutqida o'z ifodasini topadi. Til o'zlashtirish jarayonini mazkur omillar ta'sirida o'rganish jarayoni o'zbek tilshunosligi uchun muhim va dolzarb masala bo'lib, keng ko'lamli monografik plandagi amaliy tadqiqotlarni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алиева Б.Ш. Материнский язык как этнокультурный фактор воспитания школьников / Мир науки, культуры, образования. № 3, 2015. С-7.
2. Kapengut D and Kimberly G. Noble. Parental Language and Learning Directed to the Young Child / www.futurechildren.org. 2020. P – 71.
3. Eve Clark. First language Acquisition. Cambridge university press. 2003. P – 10.
4. Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения. 1-том. Москва: Педагогика. 1982. С- 205-207
5. Edward G. Conture, Ellen M. Kelly, and Tedra A. Walden. Temperament, Speech and Language: An Overview / Author Manuscript, 2012.